



## PEDAGOGIK INNOVATSION KLASTER TIZIMIDA KASBGA YO'NALTIRISHNING NAZARIY ASOSI

*Muxammadiyev Q.S.*

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi*

**Tayanch so'zlar:** ta'lim, tizim, klaster, fan, pedagogika, dolzarb, muloqot, shaxs, uzluksiz.

**Ключевые слова:** образование, система, кластер, наука, педагогика, актуальное, общение, человек, непрерывное.

**Key words:** education, system, cluster, science, pedagogy, topical, communication, person, continuous.

Oliy ta'limning jamiyat barqaror rivojlanishidagi yuqori ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqqan holda zamonaviy talablar, tizimdagi muammolar va ularni hal qilishda ta'lim, fan va ishlab chiqarish tarmoqlari o'rtasidagi tarqoqlik bugungi kunda uzluksiz pedagogik ta'limni klaster rivojlanish modeliga o'tkazish zaruratini taqozo etmoqda. Fan va ta'limning ishlab chiqarish bilan uyg'unligi barcha sohalardagi taraqqiyotni ta'minlaydi. Bu borada tabiiyki, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning integratsiyasi muhim va dolzarb vazifa. Bu esa o'z-o'zidan innovatsion klasterga yo'l ochadi. Davlatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 2017 yil 10-11 mart va 2018 yil 16-17 fevral kunlari xalq bilan muloqot qilish hamda joylarda amalga oshirilayotgan islohotlar bilan tanishib, Buxoro viloyatiga tashrifi chog'idagi "Paxta va to'qimachilik klasteri" loyihasini tashkil etish g'oyasini olg'a surdi. Unda O'zbekistonda klaster tizimi asosida ishlab chiqarishni tashkil etishning ilmiy asoslari ko'rsatib berilgan. Darhaqiqat, so'nggi vaqtda innovatsion klaster tizimi barcha sohalarga shiddat bilan kirib bormoqda. Jumladan, ta'lim tizimida ham klaster mavjud. Bu esa shaxsni kamol topishi va yetuk kadr bo'lishiga qaratilgan bo'lib, uning bog'liqligi – maktabgacha, umumiy o'rta maktab, akademik litsey, kasb-hunar kolleji, oliy o'quv yurti, doktorantura, malaka oshirish kabi jarayonlarni qamrab oluvchi butun umr davomidagi ta'lim zanjirini bir-biriga bog'langanidir.

Hozirgi kunda dolzarb muammolardan biri - bu yosh avlodni ijtimoiy turmushning barcha jabhalarida yaroqli shaxs sifatida oqilona, odilona va omilkorlik bilan tayorlashdan iboratdir. Bizning vazifamiz kelajagimiz bo'lgan o'quvchilarni kasb-hunarga, ijtimoiy-iqtisodiy bilimga ega bo'lgan, bozor sharoitini biladigan har tomonlama tushunadigan, ma'lumotli yigit - qizlarni tayyorlash.

Ongli ravishda kasb tanlash uchun o'quvchilarning bir qator kasblarni yetarlicha bilishi, bilganda ham ularning o'ziga jalb qiladigan tomonlarini emas, balki qiyinchiliklarini ham yaxshi bilishi, o'zining shaxsiy sifatlariga ko'ra tanlangan kasbini muvaffaqiyatli egallay olishi va keyingi ish jarayonida o'z malakasini takomillashtirish talab qilinadi. Bugungi kunda hayot va ijtimoiy ishlab chiqarishning muhim talabiga aylandi. Chunki, o'sib kelayotgan yosh avlod jamiyat taraqqiyoti, Vatan ravnaqi va xalq farovonligini ta'minlovchi yetuk, salohiyat bo'lajak kadrlar sanaladi. Xalqimiz "Mehnat qilgan inson doimo el ardog'ida bo'ladi" deb, bejiz aytmagan. Zotan, mehnat insonni ulug'laydigan, uning obro'-e'tiborini oshiradigan hamda uni ezgulik va yaxshilik sari yetaklaydigan jarayondir. O'quvchi-yoshlarga kasb va kasbga yo'naltirishning ijtimoiy-psixologik asoslarini o'rgatish zarur. Bu jarayonda ta'lim muassasi psixologidan ish jarayonidan faollik hamda o'rganilgan muommoni yechish mexanizmlarini ishlab chiqish talab qilinadi.

Muammoning muhimligi, yoshlarni kasbga yo'naltirishga oid bir qancha amaliy masalalarni shoshilinch ravishda hal qilishning zarurligi hozirgi vaqtda ko'plab mutaxassislar: pedagoglar, psixologlar, shiforkorlar, iqtisodchilar, sosiologlar va g'oyat xilma - xil sohalarda ishlovchi amaliyotchi xodimlarning e'tiborini o'ziga jalb etadi. Bu borada ko'plab mutaxassislarning ishtirok etishi va ish olib borishi muammoni to'g'ri va kompleks tarzda hal etish uchun zamin va sharoitlar yaratib beradi, albatta.

O'quvchilarning ongli kasbga yo'naltirish muommolarini mustaqil hamdo'stlik mamlakatlari hamda Respublikamiz olimlari S.L.Rubinshteyn, Spirimen, Bins, Ayzenk, G.Ya. Bush, S.S.Guseva, A.M.Matyushkin, K.M.Gurevich, I.V.Pavlov, K.K.Plotonov, L.S.Vigatskiy, Ye.A.Klimov, M.G.Davletshin, G'.Shoumarov, B.Qodirov, E.G'oziev, N.Majidov, X.Shodiev, Yo.Alimqulovlar o'tkazgan ilmiy - tadqiqotlarida tahlil qilganlar.

Biz kasbga yo'naltirishning psixologik mexanizmini pedagogik innovatsion klaster tizimida yoritib berishga harakat qilamiz.

Kasb tanlashga yo'llash deganda, shaxs tanlagan kasbning jamiyat va o'zi uchun ahamiyatini anglagan holda, uni muvaffaqiyatli egallashi uchun yo'nalgan faoliyat tushuniladi. U o'quvchilarning o'z kasbini mukammalroq



egallashlari uchun intilishlarida, qiziqishida, o'zi tanlagan kasbga oid bilim, ko'nikma va malakalarini egallashga harakat qilishlarida, shu kasb bo'yicha mehnat qilishga tayyor ekanliklarida ifodalanadi.

Kasb tanlashga tayyorgarlik oila, maktabdagi psixolog, kasb egalari bilan uchrashuvlar, sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning ta'sirida ma'lum bir yoshga kelib shakllanishi mumkin. Maktabda o'quvchilarga kasbni to'g'ri tanlash bo'yicha yo'l-yo'riqlar berish amaliy yordamlar ko'rsatish shart. O'quvchilarni to'g'ri va ongli kasb tanlashdagi ichki va tashqi omillarning hamkorlik aloqalari bo'lishi muhim hisoblanadi. Bu esa pedagogik innovatsion klasterida yaqqolroq ko'zga tashlanadi.

Pedagogik ta'limning jamiyat barqaror rivojlanishidagi yuqori ijtimoiy ahamiyati bilan bog'liq zamonaviy talablar, tizimdagi muommolar va ularni hal qilishda ta'lim, fan va ishlab chiqarish bo'g'inlari o'rtasidagi o'zaro yakdillikning yetishmasligi bugungi kunda uzluksiz pedagogik ta'limni klaster rivojlanish modeliga o'tkazish zaruriyatini taqozo etmoqda. Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri muayyan geografik hududning raqobatbardosh pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida bir-biri bilan uzviy aloqadagi teng huquqli alohida ta'lim subyektlarining, texnologiyalarning va inson resurslarining integratsiyalashuvini kuchaytiruvchi mexanizm bo'lib, u innovatsiya va integratsiya jarayonlari bilan bog'liq.

Pedagogik ta'lim klasteri mimetik (grek tilida mimiomai- taqlid qilmoq) metod bo'lib, iqtisodiyotning ishlab chiqarish sohasida samaradorlikka olib kelgan modelni pedagogik ta'lim tizimiga ijodiy asosda joriy etishni nazarda tutadi. Pedagogik ta'lim klasteri "ta'lim-ilm-fan-ta'lim vositalari-texnologiya-boshqaruv-biznes" innovatsion zanjirini hosil qiladi va uni ilmiy nuqtai nazardan tadqiq qilish bugungi pedagogikamizning oldidagi muhim vazifalardan bo'lib turibdi. Ta'lim majmuasini tashkil qiluvchi bo'g'inlar o'rtasida mavjud tabiiy aloqani manfaatdorlik va samaradorlik nuqtai nazaridan, ma'lum hududning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ta'minlash tobora zaruratga aylanib bormoqda.

Pedagogik innovatsion klaster tizimida kasbga yo'naltirish sohasida amalga oshiriladigan ishlar:

- Mavjud muommolarni aniqlash va bartaraf etish (kasbiy axborot va maslahatlar berish)
- Kasbga yo'naltirish ishlari bosqichlarini ishlab chiqish
- ijtimoiy yo'naltirilgan onglilikni tarkib toptirish, zaruriy hatti-xarakatlar sifatida ma'naviy-ahloqiy tarbiyalash yoki fuqarolik tuyg'ularini tarbiyalash;

- moyillik va layoqatlarni rivojlantirish, istalgan xatti-harakat sifatida kasbiy qiziqishni tarbiyalash yoki kasbiy tarbiyalash.

Kasbga yo'llash ishlarini maktablarda rejalashtirishda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- rejalashtirilgan tadbirda kasb tanlash ishlarining maqsad va vazifalari ko'rsatilgan bo'lishi kerak;
- maktabning o'qituvchilari o'z sohalari bo'yicha kasbga yo'llash ishlarida faol ishtirok etishlari lozim;
- O'quvchilarga kasbga yo'llash ishlarini olib borishda o'qituvchilar o'zlarini tizimli shaklda malakalarni oshirib borishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

Fan o'qituvchilari tomonidan kasbga yo'llash ishlarini rejalashtirishda quyidagilarga e'tibor berishi kerak:

- kasbga yo'llash asosida o'tiladigan mavzuni ish rejaga kiritish;
- kasbga doir ma'lumot ya'ni axborot beradigan mavzularni tanlash va shu mavzuga oid ko'rgazmali materiallarni tayyorlash;
- xalq xo'jaligidagi asosiy sohaga oid bo'lgan mavzularni o'rganish va rejaga kiritish;
- Dars o'tish jarayonida o'quvchilarni u yoki bu kasbga bo'lgan qiziqishini aniqlash va sinf rahbarlari bilan muhokama qilish;
- O'quvchilar bilan har doim qiziqishiga qarab ishlash (predmetga bo'lgan qiziqishini aniqlash maqsadida);
- shu fanga oid bo'lgan eksponatlarni kasbga yo'llash xonasida yangilab borish lozim;
- o'quvchilarni ruhiyatini yaxshilash maqsadida o'z bilimini va saviyasini oshirish kerak.

Xulosa sifatida pedagogik innovatsion klaster tizimida kasbga yo'naltirishning psixologik mexanizmini ishlab chiqarish orqali ta'lim tizimidagi uzluksizlik va aloqani, ta'lim jarayoni bilan oila va mahalla o'rtasidagi integratsiya jarayonini mustahkamlaydi. Yakunda esa o'quvchi-yoshlarni hozirgi davridagi hayotiy voqealarga bardosh bera oladigan va o'zlarining har bir faoliyatiga ijodiy yondasha oladigan, xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida samarali mehnat faoliyatini amalga oshira oladigan shaxs sifatida tarbiyalash uchun ularni zaruriy kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish imkonini beradi.

#### Adabiyotlar:

1. Xo'jamqulov U.N. Maktab-laboratoriya. (Uslubiy qo'llanma). Chirchiq, 2019. 43b



2. Boltaboev S.A., Ismoilova M.M. Mehnat ta'limini o'qitish metodikasi fanidan kurs ishlari. (Metodik qo'llanma). T.: Nizomiy nomli TDPU, 2002. 20 b.

3. Qoysinov O.A., Sattorov.V.N., Yakubova H.S. Mehnat ta'limidan amaliy mashg'ulotlarni tashkil yetish metodikasi. (Metodik qo'llanma). T.: Nizomiy nomli TDPU, 2011. 79 b.

4. Muslimov N.A., Qoysinov O.A. Mehnat ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limni tashkil yetish. (Metodik qo'llanma). T.: TDPU, 2006. 52 b

5. Nurmatov Farkhat Abdualimovich. Khudoiberganov Javlonbek Saotboy oglu. Improving the qualities of physical endurance in student youth. Journal of Natural Remedies Vol. 21, No. 12(2), (2021)

6. Kutlimurotovich, U. A. (2020). General physiological principles of physical education and sports. European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 7(9), 2366-2371.

7. Бабажанова, В. А., Утепбергенов, А. К., Баймуратова, Г. А., & Ережепова, Г. Д. (2017). Исследование крепости телосложения (индекс Пинье) у юношей, проживающих в различных районах Приаралья. Инновационные технологии в образовании и науке (pp. 11-14)..

#### **РЕЗЮМЕ**

Ushbu maqolada pedagogik innovatsion klaster tizimida kasbga yo'naltirishning nazariy asoslari haqida qisqacha ma'lumot bayon etilgan.

#### **РЕЗЮМЕ**

В данной статье представлена краткая информация о теоретических основах профориентационной работы в системе педагогических инновационных кластеров.

#### **SUMMARY**

This article provides brief information about the theoretical foundations of career guidance in the pedagogical innovation cluster system.